

KASBIY STANDART

Bemorga uyda parvarishlash bo'yicha yakka tartibda xizmat ko'rsatuvchilar

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanish sohasi: Ushbu kasbiy standart "Individual parvarishlash xizmatlarini ko'rsatuvchi xodim", "Uyda keksalarni parvarishlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha yordamchi" va "Kasallarga uyda qarovchi" kasblari bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish sohasi va boshqa faoliyat yo'nalishlarida keng turda qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasida mehnat vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan egallangan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

informal ta'lim – maqsadli yoki rejalashtirilgan, biroq institutsionallashtirilmagan ta'lim bo'lib, u oilada, ish joyida va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatlarini o'z ichiga oladi;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiluvchi muayyan mehnat funksiyalari va vazifalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasbiy standart – norasmiy va informal ta'limni inobatga olgan holda, muayyan kasbiy faoliyat sohasida bilim, ko'nikma, malaka darajasi, mehnat mazmuni, sifati va sharoitlariga qo'yiladigan talablarni belgilovchi rasmiy hujjat;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo'lgan mehnat funksiyalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qo'llanilib, aniq mehnat funksiyalari hamda malaka talablarini tavsiflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

kasbiy standartlar reestri – kasbiy faoliyat sohalari va turlari bo'yicha tizimlashtirilgan kasbiy standartlar ro'yxati;

kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi, qobiliyat, mahorat, ko'nikma va bilimlar majmuasi bo'lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga

tayyorligini aks ettiradi;

malaka darajasi – xodimlarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarining murakkablik, standart bo'lmagan mehnat harakatlari va mas'uliyat parametrlariga muvofiqlik darajasi;

mehnat funksiyasi – mehnat taqsimoti natijasida yuzaga kelgan o'zaro bog'liq mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – muayyan mehnat funksiyasini bajarish uchun xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'siri jarayoni;

kasb xaritasi – muayyan kasb haqida tizimlashtirilgan ma'lumotlarni (kasb nomi, malaka darajasi, ish staji, layoqati va shaxsiy kompetensiyalariga qo'yilgan talablar v.b.) o'z ichiga oluvchi kasbiy standartning tarkibiy qismi;

norasmiy ta'lim – tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim bo'lib, shaxs yoki ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi va rasmiy ta'limni to'ldiruvchi yoki uning alternativi bo'lishi mumkin;

rasmiy ta'lim – davlat ta'lim muassasalari va davlat tomonidan tan olingan nodavlat ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan, tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim jarayoni.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi 31-maydagi "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-171-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori.

4. Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1	Kasbiy standartning nomi:	Bemorga uyda parvarishlash bo'yicha yakka tartibda xizmat ko'rsatuvchilar	
2	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Bemorning uy sharoitida salomatligini saqlash, tiklash va o'z uyida xavfsiz, qulay va mustaqil yashashi ta'minlanash	
3	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	R seksiyasi: Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 87 Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda parvarishlash 87.1 Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda meditsina xizmati ko'rsatish 87.10 Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda meditsina xizmati ko'rsatish 87.10.0 Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda meditsina xizmati ko'rsatish	
4	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Bemorga tibbiy ko'rik, dori-darmon qabul qilishni nazorat qilish, jarohatlarni parvarishlash, fizioterapiya va boshqa tibbiy yordam turlarini uy sharoitida ta'minlash orqali sog'lig'ini barqarorlashtirish va yaxshilash, shuningdek, mazkur kasbiy faoliyat sohasida xodimlarga qo'yiladigan talablar, zarur bilim va ko'nikmalarni yagona nuqtai nazardan shakllantirish	
5	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		53220001 Individual parvarishlash xizmatlarini ko'rsatuvchi xodim	2
		53220003 Uyda keksalarni parvarishlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha yordamchi	3
		53220002 Kasallarga uyda qarovchi	4

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalar		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	53220001 Individual parvarishlash xizmatlarini ko'rsatuvchi xodim	A1.2	Bemorga uy sharoitida tibbiy parvarish ko'rsatish	A1.01.2	Bemorning qon bosimi, puls, harorat, nafas olish, qand miqdori va boshqa hayotiy ko'rsatkichlarini o'lchash va natijalarni hujjatlashtirish
				A1.02.2	Shifokor ko'rsatmasiga muvofiq dori vositalarini vaqtida berish, inyektsiyalar o'tkazish va jarohatlar parvarishini amalga oshirish
		A2.2	Bemorga kundalik hayot faoliyatida yordam ko'rsatish va psixoiqtimoiy qo'llab- quvvatlash	A2.01.2	Bemorga gigiena, ovqatlanish va kiyim almashtirishda yordam berish, shu jumladan maxsus ovqatlanish rejimini nazorat qilish
				A2.02.2	Bemorni yurish, o'rnidan turish, reabilitatsion mashqlar va boshqa harakatlanishda qo'llab-quvvatlash, shuningdek, psixologik qulaylik yaratish va ijtimoiy izolyatsiyani oldini olish uchun suhbatlashish
2	53220003 Uyda keksalarni parvarishlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha yordamchi	B1.3	Keksalarning uy sharoitida xavfsizligi va funktional muhitini ta'minlash	B1.01.3	Uy xavfsizligini baholash va tuzatish
				B1.02.3	Gigiena vositalarini taqsimlash va nazorat qilish
		B2.3	Keksalarning kundalik faoliyatini tashkil etish va ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash	B2.01.3	Kundalik faoliyatni tashkil etish
				B2.02.3	Ijtimoiy aloqalarni ta'minlash
3	53220002 Kasallarga uyda qarovchi	D1.4	Bemorda uy sharoitida tibbiy monitoring o'tkazish va profilaktik parvarishlash	D1.01.4	Hayotiy ko'rsatkichlarni o'lchash va xavf darajasini baholash
				D1.02.4	Bemorda jarohat parvarishini amalga oshirish va qo'shimcha dorilar berish
		D2.4	Bemorni kundalik hayot faoliyatiga tiklash	D2.01.4	Bemorning gigienik ehtiyojlarini qondirish va maxsus ovqatlanishini nazorat qilish
				D2.02.4	Bemorda individual reabilitatsion mashqlarni o'tkazish va psixologik holatni baholash

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Individual parvarishlash xizmatlarini ko'rsatuvchi xodim	
Mashg'ulot nomining kodi:	53220	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	2	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Har bir bemorning individual ehtiyojlariga moslashish; Gigiena qoidalariga qat'iy rioya qilish; Ishonch, hurmat va professionalizm; Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Umumiy o'rta ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	2	Uyda parvarishlash xizmatlarini ko'rsatuvchi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.2-Bemorga uy sharoitida tibbiy parvarish ko'rsatish	A1.01.2-Bemorning qon bosimi, puls, harorat, nafas olish, qand miqdori va boshqa hayotiy ko'rsatkichlarini o'lchash va natijalarni hujjatlashtirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Bemorni o'lchovga psixologik va jismoniy tayyorlash, tinchlantirish, qulay holatga keltirish, qo'lni 70 % spirtli salftka bilan tozalash, tonometr manjetini yurak darajasiga joylashtirish
		2. Qon bosimi, puls, harorat, nafas chastotasi va qand miqdorini belgilangan tartibda o'lchash
		3. Natijalarni "Uy parvarishi jurnali"ga aniq va o'z vaqtida kiritish
		4. Hayotiy ko'rsatkichlarning normal bo'lmagan hollarida shifokorga xabar qilish
		Ko'nikmalar:
		Avtomatik va mexanik tonometr bilan ishlash
		Glyukometr va pulsoksimetrdan to'g'ri foydalanish
		Haroratni aksillar, oral va rektal usulda o'lchash
		Nafas chastotasini 1 daqiqa hisoblash va Qon kislorod darajasini (SpO ₂) o'qish
		Hujjatlashtirish dasturi orqali ma'lumot kiritish

		6. Favqulodda holatda tezkor choralar ko'rish
		Bilimlar:
		Kattalar va bolalar uchun hayotiy ko'rsatkichlarning normal diapazoni
		O'lchov asboblarning ish tamoyili va xato manbalari
		Tibbiy hujjatlashtirish qoidalari
		Normal bo'lmagan hollarning klinik ahamiyati va shifokorga xabar berish tartibi
		Infeksion xavfsizlik talablari
		Elektron jurnal yuritish qoidalari va ma'lumotlar maxfiyligi normalari
	A1.02.2-Shifokor ko'rsatmasiga muvofiq dori vositalarini vaqtida berish, inyekeksiylar o'tkazish va jarohatlar parvarishini amalga oshirish	Mehnat harakatlari:
		1. Shifokor retsepti bo'yicha dori vositalarini bemorga vaqtida va to'g'ri dozada berish
		2. Ichki, teri osti, mushak ichi, vena ichi inyekeksiylarini gigiena qoidalari asosida o'tkazish
		3. Jarohatlarni yuvish, dezinfeksiya qilish, bog'lash va parvarish qilish
		4. Bemor holatini kuzatish, dori ta'siri va jarohat holatini shifokorga xabar berish
		Ko'nikmalar:
		Dori vositalarini to'g'ri dozalash
		Inyekeksiya turlarini xavfsiz o'tkazish
		Jarohatlarni aseptik va antiseptik qoidalarga muvofiq parvarish qilish
		Shprits, igna, bog'lam materiallari va boshqa tibbiy asboblilar bilan ishlash
		Bemor bilan muloqot qilish va ruhiy yordam ko'rsatish
		Favqulodda holatlarda birinchi yordam ko'rsatish
		Bilimlar:
		Dori vositalarining farmakologiyasi, ta'siri, nojo'ya ta'sirlari va qarshi ko'rsatmalari
		Inyekeksiya texnikasi va gigiena qoidalari
		Jarohat turlari, ularning davolash bosqichlari va asoratlari
		Bemor xavfsizligi va infeksiyalarni oldini olish standartlari
		Shifokor ko'rsatmalarini talqin qilish va favqulodda protokollar
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Shifokor ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilgan holda dori berish, inyekeksiya o'tkazish va jarohatlarni parvarish qilishda mas'uliyat
		2. Parvarish vaqtida bemor hayoti va salomatligiga shaxsiy javobgarlik
A2.2-Bemorga kundalik hayot faoliyatida yordam	A2.01.2-Bemorga gigiena, ovqatlanish va	Mehnat harakatlari:
		1. Bemorga yuvinish, sochini tarash, tishlarini tozalash va tirnoqlarini kesishda yordam berish

ko'rsatish va psixoiqtimoiy qo'llab-quvvatlash	kiyim almashtirishda yordam berish, shu jumladan maxsus ovqatlanish rejimini nazorat qilish	2. Kiyimni almashtirish, to'shak choyshablarini almashtirish va bemorni qulay holatga keltirish 3. Ovqatni tayyorlash, zarur hollarda maydalash, ilitish hamda bemorga og'iz va trubka orqali berish 4. Diabetik, tuzsiz, suyuq ovqat kabi maxsus ovqatlanish rejimi bo'yicha qismlarni o'lchash, vaqtini nazorat qilish va qoldiqni hisobga olish Ko'nikmalar: Shaxsiy gigiena jarayonlarini xavfsiz va hurmat bilan o'tkazish Kiyim va choyshablarni vaqtida almashtirish, teri yarasini oldini olish Ovqatni xavfsiz berish Maxsus ovqatlanish rejimlarini hisoblash Bemorning psixologik holatini baholash va ruhiy qo'llab-quvvatlash Infeksiyalarni oldini olish Bilimlar: Shaxsiy gigiena qoidalari va yotoq holaridagi bemorlarda teri parvarishi talablari Ovqatlanish turlari, maxsus dietalar va ularning maqsadi Ovqat berish texnikasi, bo'g'ilish va aspiratsiya xavfi belgilari Bemorning psixoiqtimoiy ehtiyojlari va qo'llab-quvvatlash usullari Kiyim va choyshab almashtirishda ergonomika va bemor xavfsizligi Ovqatlanish jurnalini yuritish, qoldiq ovqatni hisobga olish va shifokorga xabar berish tartibi
	A2.02.2-Bemorni yurish, o'rnidan turish, reabilitatsion mashqlar va boshqa harakatlanishda qo'llab-quvvatlash, shuningdek, psixologik qulaylik yaratish va ijtimoiy izolyatsiyani oldini olish uchun suhbatlashish	Mehnat harakatlari: 1. Bemorni to'shakdan o'rnidan turish, yurish va nogironlar aravachasiga o'tkazishda xavfsiz qo'llab-quvvatlash 2. Shifokor-fizioterapevt ko'rsatmasiga muvofiq passiv, faol, nafas va boshqa reabilitatsion mashqlarni o'tkazish 3. Bemor bilan doimiy suhbatlashib, psixologik qulaylik yaratish, oila va do'stlar bilan aloqani rag'batlantirish Ko'nikmalar: Bemorning bel yuklamasini kamaytirish uchun qo'llab-quvvatlash Reabilitatsion mashqlarni to'g'ri olib borish, og'riq va charchoq belgilarni aniqlash Tayoq, xodunok va boshqa yurish yordamchilari bilan ishlash va bemorga o'rgatish Empatik tinglash, ochiq savollar berish va ijtimoiy izolyatsiya belgilarni sezish

		Yiqilish, nafas qisilishi kabi favqulodda holatlarda tezkor reaksiya va birinchi yordam ko'rsatish
		Bilimlar:
		Tayanch harakat apparatining tuzilishi va anatomiyasi, kontraktura va tromboz profilaktikasi
		Reabilitatsiya bosqichlari va mashq turlari
		Psixologik qo'llab-quvvatlash usullari
		Yiqilish xavfini baholash va oldini olish
	Ijtimoiy izolyatsiyaning salomatlikka ta'siri va oilaviy aloqani saqlash asoslari	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Shifokor ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilgan holda mustaqil ravishda harakat mashqlarini o'tkazish va psixologik qo'llab-quvvatlash
		2. Parvarish vaqtida bemor hayoti va salomatligiga shaxsiy javobgarlik
Texnik va/yoki texnologik talab		Tonometr, tibbiy termometr va puls oximetridan samarali foydalanish

Kasbning nomi:	Uyda keksalarni parvarishlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha yordamchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	53220	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Har bir bemorning individual ehtiyojlariga moslashish; Gigiena qoidalariga qat'iy rioya qilish; Ishonch, hurmat va professionalizm; Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reestrida mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.3- Keksalarning uy sharoitida xavfsizligi va funksional muhitini ta'minlash	B1.01.3-Uy xavfsizligini baholash va tuzatish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Uy bo'ylab yurib silliq pol, tartibsiz buyumlar, yomon yoritilgan joylar kabi xavf omillarini aniqlash
		2. Keksaning koridor, hammom, oshxona bo'ylab harakat yo'llarini baholash va kerakli o'zgartirishlarni taklif qilish
		3. Xavfli joylarga qo'shimcha tutqichlar, sirpanmaydigan gilamchalar va yoritish moslamalarini o'rnatish
		4. Keksaga va oila a'zolariga xavfsizlik qoidalari bo'yicha ko'rsatma berish va nazorat qilish
		Ko'nikmalar:
		Uy muhitini ergonomik va funksional jihatdan tahlil qilish
		Tutqich o'rnatish, gilam mahkamlash/to'shish, lampochka almashtirish kabi oddiy ta'mirlash ishlarini bajarish
		Keksalar va ularning yaqinlari bilan samarali muloqot qilish, tavsiyalarni tushunarli yetkazish
		Xavf-xatarlar ro'yxatini tuzish va ustuvorlik bo'yicha choralarni ko'ris
		O'zgartirishlar natijasini kuzatish va qayta baholash
		Bilimlar:

		Muvozanat buzilishi, ko'rish pasayishi, dori ta'siri kabi keksalarda yiqilishning asosiy sabablari
		Uy xavfsizligi standartlari
B1.02.3-Gigiena vositalarini taqsimlash va nazorat qilish		Funksional muhit tamoyillari
		Keksalar psixologiyasi
		O'zgartirishlar bo'yicha roziliklarni rasmiylashtirish normalari va moliyaviy yordam dastur turlari
		Mehnat harakatlari:
		1. Keksaning shaxsiy gigiena ehtiyojlarini baholash kerakli va miqdorni hisoblash
		2. Gigiena vositalarini to'g'ri saqlash, taqsimlash jurnalini yuritish va qoldiqni nazorat qilish
		Ko'nikmalar:
		Gigiena vositalarini absorbentlik darajasi va teriga mosligiga muvofiq to'g'ri tanlash
		Inventarizatsiya va buyurtma shakllarini to'ldirish, yetishmovchilikni oldindan aniqlash
		Terini parvarish qilishda gigiena vositalarini qo'llash
		Oilaga vositalarni tejamkor va samarali ishlatishni o'rgatish
		Yaroqlilik muddati o'tgan va shikastlangan vositalarni ajratish hamda utilizatsiya qilish
		Bilimlar:
		Keksalarda dermatit, yara, quruqligi kabi teri muammolari xususiyatlari va ularga mos gigiena vositalari
		Vositalarni saqlash shartlari
		Infeksiya nazorati turlari
B2.3-Keksalarning kundalik faoliyatini tashkil etish va ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Gigiena vositalarining yetarli va sifatli ta'minoti uchun mustaqil javobgarlik
		Mehnat harakatlari:
		1. Keksaning individual rejimini tuzish va kun tartibini devor jadvaliga yozib qo'yish
		2. Dori ichish, mashq qilish, shifokorga borish va boshqa kundalik vazifalarni eslatish hamda ularni bajarilganligini belgilash
		3. Gul sug'orish, kitob o'qish, televizor ko'rish kabi oddiy uy ishlarida yordam berish
		4. Charchoq, kayfiyat pasayishi kabi o'zgarishlarni kuzatish va oila/shifokorga xabar berish
		Ko'nikmalar:
		Kunlik rejimni moslashuvchan tuzish
		Oddiy mashg'ulotlarni o'rgatish
		Keksaning funksional holatini baholash va hujjatlashtirish
		Oilaviy resurslarni jalb qilish, farzandlar va qo'shnilarni rejimga moslashtirish
		Raqamli vositalar bilan ishlash va o'rgatish
		Bilimlar:
	B2.01.3-Kundalik faoliyatni tashkil etish	

		Keksalarda bioritmlar va ularning buzilishi
		Kundalik faoliyatning salomatlikka ta'siri
		Xavfsiz mashg'ulot turlari
		Ijtimoiy faollikning psixologik foydalari
	B2.02.3-Ijtimoiy aloqalarni ta'minlash	Mehnat harakatlari:
		1. Keksaning oila a'zolari, qo'shnilari va do'stlari bilan aloqa jadvalini tuzish
		2. Ijtimoiy tadbirlarga tashrifni tashkil qilish va transportni ta'minlash
		3. Keksani onlayn platformalarga ulash va ulardan foydalanishni nazorat qilish
		Ko'nikmalar:
		Ijtimoiy tadbirlarni rejalashtirish va keksaning chidamliligiga moslashtirish
		Guruh suhbatlarini boshqarish, mavzuni qo'llab-quvvatlash, jimjitlikni buzish, salbiy his-tuyg'ularni yumshatish
		Ijtimoiy izolyatsiya belgilarni aniqlash va darhol choralar ko'rish
		Bilimlar:
		Ijtimoiy izolyatsiyaning salomatlikka ta'siri
		Mahalliy ijtimoiy resurslar
		Keksalar uchun soddalashtirilgan ilova turlari
		Psixologik qo'llab-quvvatlash modellari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Keksaning ijtimoiy aloqalari uzluksizligi va psixologik farovonligi uchun javobgarlik
	Texnik va/yoki texnologik talab	Tonometr, tibbiy termometr va puls oximetridan samarali foydalanish

Kasbning nomi:	Kasallarga uyda qarovchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	53220	
TMR bo'yicha malaka darajasi	4	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Har bir bemorning individual ehtiyojlariga moslashish; Gigiena qoidalariga qat'iy rioya qilish; Ishonch, hurmat va professionalizm; Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
D1.4-Bemorda uy sharoitida tibbiy monitoring o'tkazish va profilaktik parvarishlash	D1.01.4-Hayotiy ko'rsatkichlarni o'lchash va xavf darajasini baholash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Bemorning harorati va qon bosimini mustaqil o'lchash, natijalarni kunlik jurnalga kiritish
		2. Puls va nafas tezligini radial arteriya va ko'krak harakati orqali 1 daqiqa sanash va ritmni baholash
		3. Bahnatijalarini oldingi ko'rsatkichlar bilan solishtirib, og'ishlarni aniqlash va shifokorga telefon/orqali xabar berish
		4. Oilaga o'lchov usullarini amalda ko'rsatish, ularni mustaqil monitoringga tayyorlash va nazorat qilish
		Ko'nikmalar:
		Uy tonometri, termometri va puls oximetrini to'g'ri joylashtirish va natijani talqin qilish
		Bemorni o'lchovga tayyorlash va xatolarni bartaraf etish
		NEWS-2 shkalasi bo'yicha xavf darajasini hisoblash va "qizil bayroq" belgilarni (bosim <90/60, saturatsiya <94%) aniqlash
		Monitoring jurnalini raqamli va qog'oz shaklda yuritish
		Oilani o'qitishda demonstratsiya usulini qo'llash, savollariga javob berish va xavfsizlik qoidalarini nazorat qilish

		Favqulodda holatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish Bilimlar: Uy sharoitida o'lchov xatolari va ularni oldini olish usullari NEWS-2 va CRB-65 kabi uyda qo'llaniladigan xavf shkalalari va ularning klinik qaror qabul qilishdagi o'rni Hayotiy ko'rsatkichlarning fiziologik diapazonlari Profilaktik monitoring rejimi Huquqiy va hujjatlashtirish talablari
	D1.02.4-Bemorda jarohat parvarishini amalga oshirish va qo'shimcha dorilar berish	Mehnat harakatlari: 1. Jarohatni aseptik qoidalarga muvofiq yuvish, quritish va steril bog'lam bilan yopish 2. Shifokor ko'rsatmasiga asosan og'riq qoldiruvchi, antibiotik krem, gemostatik vosita va boshqa qo'shimcha dorilarni to'g'ri dozada va vaqtda surish/berish 3. Jarohat holatini baholash, kunlik jurnalga yozish, shifokorga ma'lumot berish Ko'nikmalar: Aseptika va antiseptika talablarini mustaqil qo'llash Jarohat bosqichini vizual va palpatsiya orqali aniqlash Topikal dorilarni dozalash va surish texnikasidan foydalanish Oilaga jarohat parvarishini amalda ko'rsatish, ularni mustaqil bajarishga o'rgatish va nazorat qilish Jarohatni oldingi holat bilan solishtirish va jurnalga kiritish Bilimlar: Jarohat davolanish bosqichlari va parvarish algoritmi Topikal dorilar farmakologiyasi Infeksiya belgilari Bog'lam turlari va bog'lash qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Shifokor ko'rsatmasiga qat'iy rioya qilgan holda jarohatni mustaqil parvarish qilish
D2.4-Bemorni kundalik hayot faoliyatiga tiklash	D2.01.4-Bemorning gigienik ehtiyojlarini qondirish va maxsus ovqatlanishini nazorat qilish	Mehnat harakatlari: 1. Bemorning gigiena rejimini individual holatiga moslashtirish, kunlik jadvalga kiritish va mustaqil bajarish 2. Maxsus ovqatlanish rejimini hisoblash, qismlarni o'lchash va vaqtini nazorat qilish 3. Teri yarasining oldini olish uchun bemorni vaqti-vaqti aylantirish va namlikni nazorat qilish 4. Oilaga gigiena va ovqatlanish jarayoblarini amalda ko'rsatish, ularni mustaqil bajarishga o'rgatish va haftalik nazorat o'tkazish Ko'nikmalar: Yotoq holidagi bemorni to'liq yuvintirish va terini quritish Maxsus ovqatni tayyorlash va xavfsiz ovqatlantirish Teri yarasini vizual baholash Ovqatlanish jurnalini yuritish va kaloriya hisobini nazorat qilish

		Oilani o'qitishda demonstratsiya va video yozuv usulini qo'llash, savollariga javob berish va xatolarni tuzatish
		Dekubit yara xavfini oldindan aniqlash va profilaktik choralar ko'rish
D2.02.4-Bemorda individual reabilitatsion mashqlarni o'tkazish va psixologik holatni baholash		Bilimlar:
		Gigiena talab va qoidalari, teri parvarishi fiziologiyasi
		Maxsus dietalar farmakologiyasi va klinik asoslari
		Bo'g'ilish va aspiratsiya xavfi belgilari
		Tayanch o'qitish metodikalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Shifokor ko'rsatmasiga asosan bemorning funksional holatini baholash, individual reabilitatsion mashqlar dasturini tuzish va kunlik jadvalga kiritish
		2. Passiv, faol-yordamchi va faol mashqlarni mustaqil o'tkazish, og'riq va charchoq darajasini baholash
		3. Psixologik holatni oddiy savollar orqali baholash, natijalarni jurnalga kiritish va shifokorga xabar qilish
		Ko'nikmalar:
		Mashqlar yuklamasini nazorat qilish va kontraktura belgilarni aniqlash
		Nafas mashqlarini o'rgatish va SpO ₂ oximetr bilan natijani nazorat qilish
		Oilaga mashqlarni amalda ko'rsatish, ularni mustaqil bajarishga o'rgatish va haftalik progressni fotosurat/video bilan hujjatlashtirish
		Favqulodda holatlarda mashqni to'xtatish, tez yordam chaqirish
		Bilimlar:
		Reabilitatsiya bosqichlari va mashq turlari
		Og'riq va charchoq fiziologiyasi
		Geriatrik depressiya belgilari
		Xavfsizlik qoidalari, yiqilish xavfi, kontraktura profilaktikasi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Mashq xavfsizligi, jarayonlar va ruhiy farovonlik uchun javobgarlik
Texnik va/yoki texnologik talab		Tonometr, tibbiy termometr va puls oximetridan samarali foydalanish